

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

NURILLAYEV ILHOM XOLBEK O'G'LI

**SABZAVOT (SHIRIN) MAKKAJO'XORI NAV-DURAGAYLARINI ERTAGI
VA TAKRORIY EKINLAR SIFATIDA O'STIRILGANDA QULAY EKISH
MUDDATLARINI BELGILASH**

06.01.06 – Sabzavotchilik

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

Contents of dissertation abstract of (PhD) on agricultural sciences

Nurillayev Ilhom Xolbek o‘g‘li

Sabzavot (shirin) makkajo‘xori nav-duragaylarini ertagi va takroriy ekinlar
sifatida o‘stirilganda qulay ekish muddatlarini belgilash..... 3

Нуриллаев Илхом Холбек угли

Установление оптимальных сроков посева сортов-гибридов овощной
(сахарной) кукурузы при возделывании в основной и повторной
культуре..... 19

Nurillaev Ilkhom Kholbek ugli

Establishment of optimal timing for sowing hybrid varieties of vegetable
(sweet) corn when cultivated in the main and secondary crops 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 41

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

NURILLAYEV ILHOM XOLBEK O'G'LI

**SABZAVOT (SHIRIN) MAKKAJO'XORI NAV-DURAGAYLARINI ERTAGI
VA TAKRORIY EKINLAR SIFATIDA O'STIRILGANDA QULAY EKISH
MUDDATLARINI BELGILASH**

06.01.06–Sabzavotchilik

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Qx1618 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.psuyaiti.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentlar:

Aramov Muzaffar Xoshimovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor.

Azizov Qobiljan Qaxramonjonovich
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori,
katta ilmiy xodim.

Yetakchi tashkilot:

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuaginfo@edu.uz; Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 554931 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy, Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot-resurs markazi binosi. Tel: (+99871) 260-50-43.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil « 08 » avgustdagi № 32-raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.I.Asatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, q.x.f.d., professor.

M.Z.Xolmurotov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d.,
dotsent.

S.A.Yunusov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, q.x.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Makkajo‘xori dunyo dehqonchiligida yuqori hosilli va keng ishlatiladigan oziq-ovqat, yem-xashak va texnik ahamiyatga ega yetakchi universal ekinlardan hisoblanadi. U 252,5 mln. gektar maydonga ekilib, 1,5 mlrd. tonna yalpi hosil yetishtirilmoqda. “Makkajo‘xori ishlab chiqaruvchi asosiy davlatlar – AQSh (389,7 mln.t.), Xitoy (289,1 mln.t.), Braziliya (132,0 mln.t.), Argentina (41,4 mln.t.), Hindiston (38,1 mln.t.), Ukraina (31,0 mln.t.), Meksika (37,5 mln.t.), Indoneziya (20,0 mln.t.), Rossiya (16,6 mln.t.) hisoblanadi. Har gektardan olinadigan don hosildorligi esa 6,1 tonnani tashkil etmoqda”¹. Hozirda shirin makkajo‘xori (*Zea mays convar. saccharata*) dunyo bo‘yicha millionlab gektar maydonlarda yetishtirilmoqda. Shirin makkajo‘xori dunyo dehqonchiligida yuqori iste‘mol qiymatiga ega bo‘lgan foydali sabzavot ekini hisoblanib, uning maqbul ekish muddatlarini aniqlash va takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

So‘nggi yillarda dunyo bo‘yicha shirin makkajo‘xori ekin maydonlari yil sayin kengayib, bu ekinning kasallik va zararkunandalarga bardoshli, yuqori hosildor, saqlanuvchan, biokimyoviy tarkibi boy, resurs tejamkor yangi nav va duragaylarini yaratish, yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirish borasida bir qator jumladan, AQSh, Xitoy, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Ukraina, Polsha va Tailand kabi davlatlarda muhim ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Sabzavot (shirin) makkajo‘xori yangi ekin turi bo‘lsada, hosildorligi va sifatini yaxshilash, turli noqulay omillarga chidamliligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda sabzavot (shirin) makkajo‘xorini yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar olib borilib, ma‘lum natijalarga erishilgan. Shuningdek, sabzavot (shirin) makkajo‘xori nav-duragaylarini ertagi va takroriy ekinlar sifatida o‘stirish bo‘yicha tadqiqotlar yetarli emas. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida ikki barobar oshirish, qishloq xo‘jaligini yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish”² masalalariga aloxida e‘tibor qaratilgan. Shu jihatdan, muayyan sharoitda sabzavot (shirin) makkajo‘xori yangi nav va duragaylarini har tomonlama baholash asosida asosiy va takroriy ekinlarga yaroqli, istiqbollilarini ajratish, ulardan yuqori, sifatli hamda arzon saqlanuvchan hosil olishga qaratilgan agrotexnologik tadbirlar tizimini, shu jumladan maqbul ekish muddatlarini ishlab chiqib, ilmiy va amaliy jihatdan asoslash hamda ishlab chiqarishga keng joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 fevraldagi PF-36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni va 2023 yil 15 martdagi PQ-96-son “Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) ishtirokida “Meva-sabzavotchilik tarmog‘ida qo‘shilgan qiymat zanjiri yaratishni rivojlantirish (2-bosqich)” loyihasini amalga oshirish chora-

¹ <https://www.fao.org/faostat/en/#data/QCL>

² <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

tadbirlari to'g'risida" gi qarorlarini hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz turli hududlari, tuproq-iqlim sharoitlarida sabzavot (shirin) makkajo'xori yetishtirishda nav va duragaylarini tanlash, o'stirish agrotexnologik tadbirlarini o'rganish bo'yicha I.V.Massino, H.N.Atabayeva, N.X.Xalilov, T.E.Ostonaqulov, H.Yo'ldoshev, A.I.Massino, A.O'.Maxmatmurodov, X.Q.Nazarov, Q.Q.Azizov, S.T.Sanayev, I.Saparniyazov xorijda esa G.Ye.Shmarayev, P.F.Klyuchko, D. Shpaar, Yu.M.Xaritonov, Diop Nafissatou, va boshqalar, Yasmeen Farhat va boshqalar, Binita Thapa va boshqalar, Mousavi Amir Khashayar Dadashi va boshqalar, Sebetha E va boshqalar, St Subaedah va boshqalar, A.I. Apahidean va boshqalar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan va muayyan natijalarga erishilgan.

Lekin, janubiy hudud Qashqadaryo viloyati qadimdan sug'oriladigan sho'rlanmagan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida sabzavot (shirin) makkajo'xori nav va duragaylar to'plamini asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirishga mosligini baholash, ulardan muayyan sharoitga moslanuvchan istiqbollilarini ajratish, agrotexnologiyasini takomillashtirish, ya'ni ajratilgan nav-duragaylarni turli muddatlarda ekib, o'simlikning fenologik davrlarining o'tishi, o'sishi, rivojlanishi, barg shakllanishi, paykalning fotosintetik potentsiali, yer ostki va ustki qismlarining rivojlanishi, mahsuldorlik ko'rsatkichlari, don va silos massa hosildorligi, donning sifat ko'rsatkichlari va saqlanuvchanligiga ta'sirini aniqlash masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universiteti №07/5.2 "Janubiy Qashqadaryo hududida global isish, suv tanqisligi sharoitida qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori, barqaror, sifatli, tashiluvchan va saqlanuvchan ekologik toza hosil olishni ta'minlovchi moslanuvchan nav-duragaylarni yaratish, tanlash va o'stirish agrotexnologiyasini takomillashtirish" mavzusi doirasida bajarilgan (2022-2024 yillar).

Tadqiqotning maqsadi: janubiy hudud Qashqadaryo viloyati sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida sabzavot (shirin) makkajo'xori nav-duragaylar to'plamini asosiy va takroriy ekinlar sifatida har tomonlama baholash asosida moslanuvchan istiqbollilarini ajratib, ulardan barqaror yuqori va sifatli hosil olish texnologiyasining asosiy elementi maqbul ekish muddatlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sabzavot (shirin) makkajo'xori nav va duragaylar to'plamini asosiy va takroriy ekinlar sifatida ekilganda har tomonlama kompleks baholash asosida moslanuvchan istiqbollilarini ajratish;

sabzavot (shirin) makkajo‘xori ajratilgan nav-duragaylarini turli muddatlarda asosiy va takroriy ekinlar sifatida o‘stirilganda maqbul ekish muddatlarini aniqlash;

sabzavot (shirin) makkajo‘xori ajratilgan nav-duragaylarini turli muddatlarda asosiy va takroriy ekinlar sifatida o‘stirilganda o‘simlikdagi so‘taning mahsuldorlik elementlarini aniqlash;

ajratilgan sabzavot (shirin) makkajo‘xori nav va geterozisli duragaylarini qulay ekish muddatlarida asosiy va takroriy ekinlar sifatida o‘stirishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati qadimdan sug‘oriladigan sho‘rlanmagan och tusli bo‘z tuproqlari, sabzavot (shirin) makkajo‘xorining jami 13 ta shundan – 7 ta - Sherzod-standart, Zamin, Zamon, Yangi hayot, Mazza, Evrika, Favorite navlari; 6 ta - Driver F₁–standart, Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁, Trophy F₁ duragaylari olingan.

Tadqiqotning predmeti sabzavot (shirin) makkajo‘xorining nav-duragaylarini asosiy va takroriy ekinlar sifatida 4 tadan ekish muddatlarining urug‘ dala unuvchanligi, o‘simlikning o‘sishi va rivojlanishi, barg sathi hosil bo‘lishi, paykalning fotosintetik potentsiali, bargdagi xlorofill miqdori, fotosintez so‘f mahsuldorligi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlarining shakllanishi, o‘simlik yerostki va ustki qismlarining rivojlanishi, don va silos massa hosildorligi va donning sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri hisoblandi.

Tadqiqotning usullari. Dala va ishlab chiqarish tajribalarini o‘tkazish, ekish, ekinni parvarish qilish, hosilni yig‘ish, hisoblash va analizlar umumiy qabul qilingan texnologik kartalar qishloq xo‘jaligi vazirligi (2022), Butunrossiya o‘simlikshunoslik instituti (1986), Butunrossiya sabzavotchilik ilmiy tadqiqot instituti (1992, 2011), O‘zbekiston sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti (2002), qishloq xo‘jalik ekinlarining yangi navlarini sinash bo‘yicha Davlat komissiyasi (2019) kabilar uslubi hamda tavsiyalari asosida olib borilgan, hosildorlik ko‘rsatkichlariga B.A.Dospexov (2011) va B.J.Azimov, B.B.Azimov (2006) uslublari bo‘yicha Microsoft Excel dasturi yordamida matematik statistik tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor janubiy hudud Qashqadaryo viloyati sharoitida sabzavot (shirin) makkajo‘xori nav-duragaylari to‘plami asosiy va takroriy ekinlar sifatida Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁, Favorite, Zamon, Zamin, Yangi hayot nav-duragaylarida qimmatli xo‘jalik belgilari (tezpisharligi, don va silos massa xosildorligi va maxsulotning sifat ko‘rsatkichlari) aniqlangan;

ajratilgan Megaton F₁, Yangi hayot va Sherzod nav-duragaylarining ekish muddatlari asosiy ekin sifatida mart oyining uchinchi dekadasi, takroriy ekin sifatida esa iyun oyining uchinchi dekadasi va iyul oyining birinchi dekadasi ekanligi isbotlangan;

moslanuvchan nav-duragaylar 20 va 30 mart muddatlarida ekilganda tupdagi so‘talar soni 2,0-2,2 dona, so‘talar vazni 318,6-374,6 g, so‘tadagi don qatorlar soni 14,0-16,0 dona, so‘ta bir qatoridagi donlar soni 37,0-41,3 dona, bitta so‘tadagi donlar soni 518,0-690,6 donani tashkil etishi aniqlangan;

takroriy ekin sifatida erta (30 iyun – 10 iyulda) ekilganda tupdagi so‘talar soni 1,9-2,2 dona, so‘talar vazni 311,3-367,6 g; so‘tadagi don qatorlar soni 12,0-14,0

dona, so‘ta bir qatoridagi donlar soni 35,0-35,6 dona, bitta so‘tadagi donlar soni 420,0-519,0 dona bo‘lishi aniqlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari:

janubiy hudud – Qashqadaryo viloyati qadimdan sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida sabzavot (shirin) makkajo‘xori turli nav-duragaylarini asosiy va takroriy ekinlar sifatida o‘stirib, o‘suv davri, o‘sishi, rivojlanishi, tupning shakllanishi, barg hosil qilishi, paykalning fotosintetik potentsiali, bargdagi xlorofill miqdori, fotosintez sof mahsuldorligi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, don va silos massa hosildorligi, moslanuvchanlik imkoniyati va koeffitsiyenti, don sifat ko‘rsatkichlari hamda saqlanuvchanligi bo‘yicha baholanib, istiqbolli moslanuvchan Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁, Yangi hayot, Favorite, Zamon, Zamin, Mazza nav-duragaylari ajratilgan;

ajratilgan moslanuvchan sabzavot (shirin) makkajo‘xori nav-duragaylari (Megaton F₁, Yangi hayot va Sherzod-standart) turli muddatlarda asosiy va takroriy ekinlar sifatida o‘stirilganda, maqbul ekish muddatlari (asosiy ekinda 20-30 martda; takroriy ekinda 30 iyun 10 iyulda o‘simlik o‘sishi, rivojlanishi, baquvvat yer ustki va ostki qismlari hamda barg sathi shakllanishiga ijobiy ta‘sir etishi aniqlangan;

sabzavot (shirin) makkajo‘xorining moslanuvchan nav-duragaylarini yetishtirish orqali har gektardan eng yuqori don hosildorligi 5,8-7,6 t/ga asosiy ekinda, 5,3-7,2 t/ga takroriy ekinda, sof daromad 4,500-9,050 va 3,250-8,550 ming so‘m va 34,8-65,8 va 25,6-62,6% rentabellik darajasi ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dala va ishlab chiqarish tajribalarining uslubiy jihatdan to‘g‘ri o‘tkazilganligi, dissertatsiya ishida qo‘llanilgan uslublarning tadqiqotlarni bajarishga mosligi, olingan natijalarning respublika va xorijiy olimlar tajribalari bilan taqqoslanganligi, ma‘lumotlarning matematik-dispersion, korrelyatsion va iqtisodiy tahlil qilinganligi va ishonchliligi, tadqiqotlar natijalarining respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, shuningdek, tajribalar natijalarining ilmiy nashrlarda chop etilib, ishlab chiqarishga joriy etilganligi va tavsiyalar yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati janubiy hudud Qashqadaryo viloyati eskidan sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida sabzavot makkajo‘xori nav-duragaylar to‘plami asosiy va takroriy ekinlar sifatida ekilganda fenofazalarning ro‘y berishi va o‘tishi, tezpisharligi, o‘sishi, rivojlanishi, tupning shakllanishi, barg sathi, palak va ildiz hosil bo‘lishi, paykalning fotosintetik faolligi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, don va silos massa hosildorligi, moslanuvchanlik imkoniyati va koeffitsiyenti hamda donning sifat ko‘rsatkichlari va saqlanuvchanligi bo‘yicha har tomonlama baholanib, istiqbolli moslanuvchan nav-duragaylar ajratilganligi, ularni o‘stirish texnologiyasining asosiy elementi, turli ekish muddatlarida asosiy va takror ekinlar sifatida o‘rganilganligi, yuqori va sifatli don hosili olishga imkon beruvchi maqbul ekish muddatlarining ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Qashqadaryo viloyatining eskidan sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitidagi fermer va tomorqa xo‘jaliklarida sabzavot makkajo‘xori asosiy va takroriy ekinlar uchun ajratilgan moslanuvchan Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁, Favorite, Sherzod, Yangi hayot, Zamon,

Zamin, Mazza kabi nav-duragaylari tanlanganligi, ularni asosiy ekin sifatida 20-30 mart, takroriy ekin sifatida 30 iyun 10 iyul muddatlarida o‘stirish agrotexnologiyasi ishlab chiqilganligi, joriy etilganligi va tavsiyanoma yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo viloyati eskidan sug‘oriladigan sho‘rlanmagan och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida sabzavot makkajo‘xori o‘stirish texnologiyasini takomillashtirish asosida barqaror yuqori va arzon hosil olishga imkon beruvchi nav-duragaylarni tanlash va agrotexnologiyasini yaratish borasida olib borilgan tadqiqotlar asosida:

fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari uchun “Qashqadaryo viloyati sharoitida sabzavot (shirin) makkajo‘xoridan yuqori va sifatli hosil olishda nav-duragaylarni tanlash va maqbul ekish muddatlarini belgilashga oid tavsiyalar” tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markaziining 2025-yil 2-iyun 05/06-04-306-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu tavsiyanoma fermer xo‘jaliklari rahbar-mutaxassislari, ilmiy izlanuvchilar va sabzavot (shirin) makkajo‘xori yetishtiruvchi yerdan foydalanuvchilarga muhim ilmiy-uslubiy qo‘llanma sifatida xizmat qilmoqda;

Qashqadaryo viloyati sharoitida asosiy ekin sifatida sabzavot (shirin) makkajo‘xorining Sherzod, Yangi hayot va Megaton F₁ ajratilgan moslanuvchan nav duragaylarini maqbul ekish (18-20 mart) muddatlari ishlanmasi viloyatning Qarshi tumanidagi “Turdiyeva Gulzoda” fermer xo‘jaligining 1,5 gektar, “Ergash bobo o‘g‘li Farhod” fermer xo‘jaligining 1,2 gektar, “Toshniyoz o‘g‘li Turdiqul” fermer xo‘jaligining 0,8 gektar, jami 3,5 gektar maydonda amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markaziining 2025-yil 2-iyun 05/06-04-306-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada asosiy ekinlar sifatida gektardan o‘rtacha 5,3-7,3 tonna don hosil olishga erishilgan;

Qashqadaryo viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida sabzavot (shirin) makkajo‘xorining ajratilgan moslanuvchan Sherzod, Yangi hayot va Megaton F₁ nav duragaylarini maqbul ekish muddatlari (29-30 iyun) ishlanmasi viloyatning Qarshi tumanidagi “Turdiyeva Gulzoda” fermer xo‘jaligining 2,0 gektar, “Ergash bobo o‘g‘li Farhod” fermer xo‘jaligining 1,0 gektar, “Toshniyoz o‘g‘li Turdiqul” fermer xo‘jaligining 1,3 gektar, jami 4,3 gektar maydonda amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markaziining 2025-yil 2-iyun 05/06-04-306-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada takroriy ekinlar sifatida gektardan o‘rtacha 4,7-6,6 tonna don hosil olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala va ishlab chiqarish tajribalari har yili universitet maxsus komissiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi mutaxassislari tomonidan sinovdan o‘tgan va ijobiy baholangan, jumladan 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida hamda har yili QarDU Geografiya va agronomiya fakulteti yillik ilmiy hisobotlari va «Agrokimyo va ekologiya» kafedrasining kengaytirilgan yig‘ilishida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta, shulardan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, 1 ta ishlab chiqarishga tavsiyalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Sabzavot (shirin) makkajo'xori biokimyoviy tarkibi, biologiyasi, nav-duragaylari va ekish muddatlarining o'rganilganligiga oid adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida shirin makkajo'xori donining biokimyoviy tarkibi va uning ahamiyati, morfologik va biologik xususiyatlari, sabzavot makkajo'xori nav va duragaylarini turli tuproq-iqlim sharoitida o'rganilganligi, o'stirish agrotexnologiyasi tadbirlarining manbalarda yoritilganligi kabilar 179 ta xorijiy va mahalliy adabiyotlar hamda elektron manbalar asosida yoritilgan. Shu bilan birga, shirin makkajo'xori respublikamizda, ayniqsa janubiy hudud Qashqadaryo viloyatida noan'anaviy ekin bo'lib, yangi joriy etilayotganligi sababli, nav-duragaylari mazkur sharoitda taqqoslanib, asosiy va takroriy ekinlar sifatida baholanmagan, o'stirish agrotexnologiyasi elementlari, qulay ekish muddatlarini belgilash umuman o'rganilmaganligi qayd etilgan. Mazkur masalani hal etish dolzarb bo'lib, dissertatsiya ishining maqsad va vazifalarini bajarish uchun maxsus dala tajriba o'tkazish zarurligini ko'rsatdi.

Ishning **“Tadqiqot joyi, tuproq-iqlim sharoitlari va uslublari”** deb atalgan ikkinchi bobida tadqiqotlar joyi, tuproq-iqlim sharoitlari, yo'nalishlari, obyekt, predmeti va uslublari, tajriba dalasida asosiy va takroriy ekinlar sifatida don uchun makkajo'xori o'stirish agrotexnologiyasi va texnologik kartasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Dala tajribalari 2022-2024 yillar mobaynida Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanida joylashgan Turdiyeva Gulzoda fermer xo'jaligida, ishlab chiqarish sinovi esa shu fermerda hamda Toshniyoz o'g'li Turdiqul va Ergash bobo o'g'li Farxod fermer xo'jaliklarida olib borildi.

Tajriba dalasining tuproqlari agrokimyoviy tahlil qilinganda, tajriba olib borilgan 2022-2024 yillarda haydalma (0-30 sm) qatlamda gumus miqdori 0,70-0,82%, umumiy azot – 0,08-0,10%, fosfor – 0,14-0,17%, haydov osti (31-50 sm) qatlamida esa mos ravishda, gumus 0,65-0,69, umumiy azot – 0,06-0,07 va fosfor – 0,09-0,11% ni tashkil etdi. Nitrat azoti miqdori haydov va haydov osti qatlamlarining 1 kg tuprog'ida 4,42-7,15 mg, harakatchan fosfor – 12,20-15,27 va almashinuvchan kaliy 181-214 mg bo'lib, tajriba dalasining tuprog'i harakatchan azot bilan juda kam, harakatchan fosfor bilan kam va almashinuvchi kaliy bilan o'rtacha darajada

ta'minlangani aniqlanganligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Tajriba o'tkazilgan joyning iqlim sharoitlarini ta'riflash uchun "Qarshi" meteostansiyasi ma'lumotlaridan foydalanilgan. Unga ko'ra, ko'p yillik ma'lumotlar bo'yicha, yog'in miqdori 237,1 mm, havoning nisbiy namligi 58%, havo harorati 16,5°C ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba o'tkazilgan yillarda bu ko'rsatkichlar, mos ravishda, 5,4-157,6 mm.ga kam, 4-12% ga yuqori, 1,4-2,0°C ga yuqori bo'lgani qayd etilgan.

Tadqiqotlar quyidagi yo'nalishlarda dala tajribalari o'tkazish bilan bajarildi:

1-tajriba. Sabzavot (shirin) makkajo'xori nav va duragaylar to'plamini asosiy va takroriy har xil muddatlarda ekilganda fenologik fazalarning ro'y berishi va o'tishi, o'sishi, rivojlanishi, barg sathi, fotosintetik faolligi, mahsuldorlik ko'rsatkichlari, don va silos massa hosildorligi hamda donning sifat ko'rsatkichlari va saqlanuvchanligi bo'yicha baholash. Tajribada sabzavot (shirin) makkajo'xorining jami 13 ta, shundan – 7 ta, ya'ni – Sherzod (UZ, 2005) – standart, Zamin (UZ, 2015), Zamon (UZ, 2021), Yangi hayot (UZ, 2025), Mazza (UZ, 2013), Evrika (UZ, 2015), Favorite (USA) navlari; 6 ta, ya'ni – Driver F₁ (USA) – standart, Megaton F₁ (FR, 2016), Bonus F₁ (SW), Gold F₁ (TR), Sentinel F₁ (USA), Trophy F₁ (NL, 2015) duragaylari asosiy ekin sifatida 21-23 martda, takroriy ekin sifatida 30-iyun 2-iyulda 90x20 sm tartibda ekilib, o'zaro taqqoslandi. Delyankaning maydoni 36 m², takrorlar soni 4 ta bo'ldi.

2-tajriba. Sabzavot makkajo'xori istiqbolli moslanuvchan nav-duragaylarini turli muddatlarda asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirishning davrlar davomiyligi, o'sishi, o'simlik va maydon birligida barg sathining shakllanishi, paykalning fotosintetik potentsiali, bargdagi xlorofill miqdori, fotosintez sof maxsuldorligi, o'simlik yer ostki va ustki qismlarining hosil bo'lish dinamikasi, maxsuldorlik ko'rsatkichlari, don va silos massa hosildorligiga ta'sirini aniqlash. Buning uchun shirin makkajo'xorining Sherzod (standart), Yangi hayot navlari va Megaton F₁ duragayi ajratib olinib, ekish ertagi muddatda – 10.03., 20.03., 30.03., 10.04., takroriy ekin qilib, 30.06., 10.07., 20.07., 30.07. muddatlarda 90x20 sm tartibda 4-5 va 5-6 sm chuqurliklarda amalga oshirildi. Delyankaning maydoni 18 m². Takrorlar soni 4 ta bo'ldi.

Dala va ishlab chiqarish tajribalarini o'tkazish, ekish, ekinni parvarishlash, hosilni yig'ish, kuzatish, o'lchash, hisoblash va tahlillar umumqabul qilingan Qishloq xo'jaligi vazirligi, Butunrossiya o'simlikshunoslik instituti, Butunrossiya makkajo'xori ilmiy tadqiqot instituti, Sabzavot poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti, Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash markazi kabilar uslubi hamda tavsiyalari asosida olib borilgan.

Bob oxirida sabzavot makkajo'xorini tajriba dalasida asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirish agrotekhnologiyasi tadbirlari va texnologik kartasi ham bayon etilgan.

Dissertasiyaning **"Sabzavot (shirin) makkajo'xori nav va duragaylarini asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'rganish natijalari"** deb atalgan uchinchi bobida o'rganilgan nav-duragaylarda fenologik fazalarning ro'y berishi, o'tishi, davomiyligi, o'simlikning o'sishi, barglanishi, barg sathi, maydon birligida barg sathi shakllanishi va fotosintetik faolligi, bargdagi xlorofill miqdori, fotosintez sof mahsuldorligi (FSM), o'simlik yer ostki va ustki qismlarining shakllanishi,

mahsuldorlik ko'rsatkichlari, don va silos massa hosildorligi, moslanuvchanlik imkoniyati va koeffitsiyenti, donning sifat ko'rsatkichlari va saqlanuvchanligi hamda iqtisodiy samaradorligini o'rganish bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Olingan natijalarning ko'rsatishicha, shirin makkajo'xori o'rganilgan nav va duragaylarining o'suv davri asosiy ekin sifatida o'stirilganda 75-81 kunni tashkil etib, nisbatan tezpishar – Sherzod, Yangi hayot, Bonus F₁, Gold F₁, Zamin, Zamon nav-duragaylari bo'ldi. Takroriy ekin sifatida esa o'suv davri 77-85 kun bo'lib, nisbatan (77-79 kun) tezpishar nav-duragaylar bo'lib, Sherzod, Yangi hayot, Zamin, Zamon, Mazza, kechpishar (81-85 kun) Driver F₁, Evrika, Favorite, Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁, Trophy F₁ aniqlandi.

O'simlikning o'sish va rivojlanishi o'rganilgan nav hamda duragaylar bo'yicha asosiy va takroriy ekin sifatida o'stirilganda keskin o'zgarib, jadal o'sish so'talash fazasigacha kuzatilib, baland bo'yli (182,0-197,0 sm), serbargli (12,0-13,0 dona) o'simliklar Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Favorite, Sentinel F₁, Trophy F₁, Mazza, Yangi hayot nav-duragaylarida qayd etildi.

Shirin makkajo'xori nav-duragaylari asosiy va takroriy ekinlar sifatida parvarishlanganda, o'simlik o'suv davri va barglanish o'rtasida korrelyasion bog'liqlik hisoblanganda, ular orasida o'rta darajaga yaqin teskari bog'lanish mavjudligi aniqlanib, $r=-0,199$ ($R^2=0,0397$) ga teng ekanligi qayd etildi.

Asosiy ekin sifatida shirin makkajo'xori nav va duragaylari o'stirilganda ro'vaklash va so'talash davrida eng yuqori barg sathi shakllanishi (0,66-0,80 m²) Zamin, Zamon, Yangi hayot navlarida, (0,79-0,93 m²) Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁ duragaylarida kuzatildi. Takroriy ekin sifatida esa eng yuqori barg sathi qayd etilgan nav-duragaylarda qayd etilib, navlarda 0,69-0,74 m², duragaylarda 0,80-0,85 m² ni tashkil etdi.

Sabzavot makkajo'xori nav-duragaylari asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirilganda, o'simlik bo'yi va barg sathining shakllanishi orasida o'rta darajadan yuqori ijobiy korrelyatsiya mavjudligi aniqlanib, $r=0,615$ ($R^2=0,3791$) ga tengligi ma'lum bo'ldi.

Maydon birligida barg sathi hosil bo'lishi keskin farqlanib, so'talash davrida asosiy va takroriy ekin sifatida shirin makkajo'xori nav-duragaylarida eng yuqori maydon birligida barg sathi (34,9-44,4 ming m²/ga) Sherzod, Zamin, Zamon, Yangi hayot, Mazza, Evrika navlarida, Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁ (44,4-51,6 ming m²/ga) duragaylarida qayd etildi.

O'suv davri davomida asosiy ekin sifatida ekilganda o'rganilgan nav-duragaylar bo'yicha 3091,7 dan (Driver F₁) 5112,2 ming m²/ga x kunda (Megaton F₁) gacha, takroriy ekin sifatida ekilganda esa 2798,7 dan (Driver F₁) 4578,1 ming m²/ga x kunda (Megaton F₁) gachani tashkil etdi. Eng yuqori (3368,8-4283,6 ming m²/ga /ga x kun) paykalning fotosintetik potentsiali Zamin, Zamon, Yangi hayot, Favorite, Mazza navlarida hamda Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁ duragaylarida (4250,5-5112,2 ming m²/ga x kun) ma'lum bo'ldi.


Sabzavot makkajo'xori nav va duragaylarini asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirilganda maydon birligida barg sathi shakllanishi va paykalning fotosintetik potentsiali o'rtasidagi korrelyasion bog'liqlik hisoblanganda, yuqori darajada ijobiy

bog‘lanish mavjudligi, korrelyasion koeffitsiyenti $r=0,944$ ($R^2=0,8906$) ga tengligi ma‘lum bo‘ldi.

Eng ko‘p xlorofill saqlaydigan nav va duragaylar asosiy va takroriy ekinlar sifatida o‘stirilganda, ro‘vaklash davrida 660,3-697,4 mg – Sherzod, Zamin, Zamon, Yangi hayot navlari, 702,6-741,4 mg – Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁ duragaylari hisoblanadi. Shunda eng yuqori fotosintez so‘f mahsuldorligi (FSM) ham (9,45-9,87 g/m² sutkada) kuzatildi.

Baquvvat ildiz tizimli va yashil massali o‘simlik yer ustki qismi butun o‘suv davri davomida, shu jumladan so‘talash davrida 160,3-178,9 g yer ostki, 1168,4-1195,3 g – yer ustki massa Sherzod, Zamin, Zamon, Yangi hayot, Mazza, Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁ nav-duragaylarda kuzatildi.

Sabzavot makkajo‘xori nav-duragaylarida o‘simlik yer ostki va ustki qismlari orasidagi korrelyatsiya hisoblanganda, o‘zaro yuqori darajaga yaqinroq ijobiy bog‘lanish mavjudligi, $r=0,722$ ($R^2=0,5207$) ga teng ekanligini ko‘rsatdi.



1-rasm. Shirin makkajo‘xori nav va duragaylari asosiy va takroriy ekinlar sifatida o‘stirilganda don hamda silos massa hosildorligi, 2022-2024 yillar.

Asosiy mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, ya‘ni tupdagi eng ko‘p so‘talar soni (1,9-2,5 dona), so‘talar vazni (336,2-367,6 g), eng yuqori don chiqimi (82,6-85,0 %), eng yirik donlar (1000 tasining vazni 231,8-247,2 g) Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁, Yangi hayot, Zamon nav-duragaylarida aniqlandi.

Asosiy va takroriy ekinlar sifatida sinalgan nav hosildorligi yillar bo‘yicha o‘rtacha gektaridan 5,1 dan 6,6 tonnagacha, duragaylarda esa 4,2 dan 7,6 tonnagacha o‘zgardi (1-rasm).

Standart Sherzod navi gektaridan 6,0 tonna hosilni ta‘minlagan bo‘lsa, eng yuqori hosildorlik (6,5-6,6 t/ga) Yangi hayot va Zamon navlaridan olinib, qo‘shimcha hosildorlik 0,5-0,6 t/ga yoki 108,3-110,0 %ni tashkil qildi.

Standart Driver F₁ duragayidan don hosildorligi 4,2 tonnani tashkil etgan bo'lsa, o'rganilgan Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁ duragaylaridan eng yuqori (7,1-7,6 t/ga) hosildorlik yoki 2,9-3,4 t/ga (169,0-180,9 %) qo'shimcha hosil olishni ta'minladi. Takroriy ekin sifatida shirin makkajo'xori navlari hosildorligi gektaridan 4,5 dan 6,2 tonnagacha farqlandi.

Standart Sherzod navi takroriy ekilganda 5,4 tonna, sinalgan Yangi xayot, Zamin, Zamon, Mazza, Favorite navlari 5,7-6,2 t/ga yoki 0,3-0,8 t (105,5-114,8 %) qo'shimcha hosilni ta'minladi.

Takroriy ekin sifatida o'ranilgan barcha duragaylar standart Driver F₁ duragayiga nisbatan yuqori hosildorlikni ta'minlab (4,5-7,3 t/ga), 0,8-3,6 t/ga yoki 121,1-197,2 % qo'shimcha hosildorlik olindi.

Demak, asosiy ekin sifatida shirin makkajo'xorining Sherzod, Zamin, Zamon, Yangi hayot, Mazza, Favorite navlari gektaridan 6,2-6,6, Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁ duragaylari esa 7,1-7,6 tonna, takroriy ekin sifatida Sherzod, Zamin, Zamon, Yangi hayot, Mazza, Evrika, Favorite navlari 5,4-6,2, Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁ duragaylari esa 6,4-7,3 tonna don hosili olishga imkoniyat yaratarkan.

Shirin makkajo'xori nav va duragaylari asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirilganda silos massa hosildorligi o'rganilganda, tajriba variantlari bo'yicha o'rtacha 45,9 dan 64,7 tonnagacha farqlanib, eng yuqori silos massa hosildorligi (54,1-64,7 t/ga) asosiy ekin sifatida Zamin, Zamon, Yangi hayot, Favorite navlarida Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁ duragaylarida kuzatildi. Takroriy ekin sifatida o'stirilganda ham eng yuqori silos massa hosildorligi (52,6-63,0 t/ga) yuqorida qayd etilgan nav va duragaylardan olindi. Shunda 2,2-17,3 t/ga (104,3-136,4%) qo'shimcha silos massa hosili olishga erishildi.

Don hosildorligi bo'yicha eng yuqori moslanuvchanlik koeffitsiyenti asosiy ekin sifatida (1,02-1,17), takroriy ekin sifatida esa (1,02-1,24) Zamin, Zamon, Yangi hayot, Mazza, Favorite navlarida, Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁ duragaylarida kuzatilib, hosildorlik 5,7-7,5 t/ga ni tashkil qildi. Eng past moslanuvchanlik koeffitsiyenti (0,63-0,96) Driver F₁, Evrika, Trophy F₁ nav-duragaylarida qayd etildi.

Shirin makkajo'xori nav-duragaylari donining sifat ko'rsatkichlari – 1000 ta donasining massasi, bir litr don natura massasi, don morfologik belgilari, o'lchamlari, namligi kabilar bo'yicha o'rganilganda, 1000 ta don massasi asosiy ekin sifatida o'stirilganda 116,4 dan 247,2 grammgacha, natura massasi esa 413,0 dan 578,9 grammgacha o'zgarib, eng yirik donlar Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁, Yangi hayot, Zamon nav-duragaylarida kuzatildi. Shunga o'xshash qonuniyat takroriy ekin sifatida o'stirilganda ham olindi.

Iqtisodiy hisob-kitoblarga ko'ra, Qashqadaryo viloyati qadimdan sug'oriladigan sho'rlanmagan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida shirin makkajo'xorining moslanuvchan Megaton F₁, Bonus F₁, Gold F₁, Sentinel F₁, Yangi hayot, Zamin, Zamon, Mazza, Favorite nav va duragaylarini asosiy va takroriy ekinlar sifatida parvarishlash har gektardan 4.250-9.000 ming so'm sof daromad va 33,1-65,2% rentabellikka erishishni ta'minladi.

Ishning **“Istiqbolli sabzavot (shirin) makkajo‘xori nav-duragaylarini turli muddatlarda asosiy va takroriy ekin sifatida yetishtirish”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida turli ekish muddatlarda asosiy va takroriy ekinlar sifatida shirin makkajo‘xori moslanuvchan nav-duragaylari o‘stirilganda rivojlanish davrlarining davomiyligi, o‘simlikning o‘sinh va barglanish dinamikasi, maydon birligida barg sathi shakllanishi va paykalning fotosintetik potentsiali, bargdagi xlorofill miqdori va fotosintez sof mahsuldorligi, yer osti va ustki qismlarining hosil bo‘lishi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, don va silos massa hosildorligi, donning sifat ko‘rsatkichlari va saqlanuvchanligi, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari berilgan.

Tadqiqotlarning ta’kidlashicha, shirin makkajo‘xori moslanuvchan navlarini turli muddatlarda asosiy va takroriy ekinlar sifatida o‘stirish rivojlanish fazalarini ro‘y berishi va o‘tishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatib, o‘suv davri davomiyligi Sherzod standart navida 75-79, Yangi hayot navida 74-85, Megaton F₁ duragayida esa 80-86 kunni tashkil etib, tezpishar guruhiga oid ekanligi, erta muddatlarda ekish o‘suv davrini 2-4 kungacha uzaytirishi aniqlandi.

